

## KICHIK BIZNES SOHASIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI SAMARALI TASHKIL ETILISHI SUBYEKTLAR FAOLIYATI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING BOSH OMILI

**Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich**

Andijon davlat texnika instituti,  
“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)  
E-mail: [m.juraxonov@andmi.edu.uz](mailto:m.juraxonov@andmi.edu.uz)

### Annotatsiya

Maqolada kichik biznes subyektlari faoliyatini barqarorligini ta'minlashda moliyaviy munosabatlarning o'rni va ahamiyati o'rganilgan. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining moliyaviy va kapital barqarorlik darajalari tahlil qilingan. Andijon viloyati hududlarida kichik biznes subyektlariga kiritilgan kreditlarning barqarorlik darajasi aholi jon boshiga nisbati xamda kichik biznes subyektlariga nisbati asosida baholangan.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, barqarorlik, moliyaviy munosabatlar, investitsiya, kredit tizimi, moliyaviy barqarorlik, kapital barqarorlik, imtiyozli kreditlar, mikromoliya, kredit stavkalari.

### Аннотация

В статье исследуются роль и значение финансовых отношений в обеспечении устойчивости деятельности субъектов малого бизнеса. Проанализированы уровни финансовой и капитальной устойчивости субъектов малого бизнеса Андижанской области. Уровень устойчивости кредитов субъектов малого бизнеса на территориях Андижанской области оценен исходя из соотношения на душу населения и соотношения к субъектам малого бизнеса.

**Ключевые слова:** малый бизнес, устойчивость, финансовые отношения, инвестиции, кредитная система, финансовая устойчивость, устойчивость капитала, льготные кредиты, микрофинансирование, кредитные ставки.

### Abstract

The article studies the role and importance of financial relations in ensuring the stability of the activities of small business entities. The levels of financial and capital stability of small business entities in the Andijan region are analyzed. The level of stability of loans to small business entities in the territories of Andijan region was evaluated based on the ratio per capita and the ratio to small business entities.

**Keywords:** small business, stability, financial relations, investment, credit system, financial stability, capital stability, preferential loans, microfinance, credit rates.

### KIRISH

Kichik biznesni barqaror rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning zaruriy shartlaridan biridir. So'ngi yillarda mamlakatimizda kichik biznesning rivojlanishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, jumladan yangi turdagi mahsulot va xizmatlarni yaratilishi, eksport salohiyatini oshishi, yangi ish o'rinlarining barpo etilishi, oilalar daromadi va

ularning farovonligini ta'minlanishi aynan ushbu subyektlar faoliyati va rivojiga bog'liq hisoblanadi.

O'z navbatida ushbu faoliyatni barqarorligini ta'minlashda moliyaviy munosabatlar muhim o'rin tutadi. Ayni vaqtda, kichik biznes subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish, uning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirish, ular faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturining asosiy maqsadi xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o'zgarishlarga erishishni ta'minlashga yo'naltirilganligi bilan e'tiborlidir. Unga ko'ra yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atini 6 foizdan kam bo'lmagan darajada bo'lishi, iqtisodiyotga 275 trillion so'm kredit resurslarini yo'naltirish, shu jumladan, 41 trillion so'mlik mikromoliya xizmatlari ko'rsatilishini ta'minlash, banklar tomonidan taqdim etiladigan kredit stavkalarini bozor mexanizmlari asosida 2-3 foiz bandga pasaytirish ko'zda ko'zda tutilgan [1].

### ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlari faoliyati barqarorligini ta'minlashda moliyaviy munosabatlar o'rni va ahamiyatiga oid ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

A.Safina va M.Gayfullinalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda kichik korxonalarining barqaror rivojlanish omillari sifatida moliyaviy, soliq, investitsiya, tashkilotchilik, ishlab chiqarish-texnologik manbalar sanab o'tilgan [2].

L.Shaxshayeva esa, kichik tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini omillari sifatida bir qator imtiyozlarni ko'rsatib o'tgan: moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, soliq bo'yicha kreditlash; faoliyatni me'yoriy-huquqiy tartibga solish; moliyaviy mablag'lar kooperatsiyasi; tadbirkorlik faoliyatini sug'urtalash; axborot infratuzilmasini shakllantirish; marketing faoliyati kabilar [3].

A.N. Dobronravov "Kichik korxonalar faoliyati ko'lami, ularning aylanmasi tufayli ular o'z resurslarida ancha cheklangan va yirik korxonalariga qaraganda ular tashqi ya'ni, jalb qilingan moliyalashtirish manbalariga muhtoj. Kichik korxonalarining rivojlanish salohiyati ko'p jihatdan kichik korxonalarining tashqi moliya manbalaridan foydalanish va ularni muvaffaqiyatli jalb qilish qobiliyatiga bog'liq" ekanligini ta'kidlaydi [4].

O'zbekistonlik olimlardan Sh.O. Olimjonova kichik biznesni rivojlantirish omili sifatida – investitsiyalarni ko'rib o'tgan. U o'z tadqiqotida investitsiyalarning manbalari bo'yicha soha rivojlanishini baholagan [5]. N.I.Sultonova esa, kichik biznesning rivojlanish darajasini moliyalashtirish tizimi va uning amal qilishi bilan tavsiflaydi [6].

M.Eshovning fikricha, "Jahon amaliyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashning quyidagi usullaridan keng foydalaniladi: bevosita moliyalashtirish, kredit qiymatini pasaytirish, kredit olishga kafolatni ta'minlash" [7].

Kichik biznes sohasining jadal sur'atlar bilan rivojlanishida moliyalashtirish tizimining o'rni katta, chunki tadbirkorlik subyektlari faoliyatlariga kiritilayotgan turli ko'rinishdagi investitsiyalar orqali iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning moliyaviy-iqtisodiy-ijtimoiy jihatlari nazarda tutilgan. Ma'lumki, kichik biznes kapital taqchilligi sharoitida ko'p mablag' talab etmaydigan xo'jalik faoliyati sifatida resurslar aylanmasining yuqori sur'atlarini ta'minlaydi, iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste'mol bozorini shakllantirish va uni to'ldirish muammosini tez hamda tejamli tarzda hal etadi. Kichik korxonalar iste'mol talabining o'zgarishiga darhol moslashadi va shu yo'l bilan iste'mol bozoridagi zaruriy muvozanatni ta'minlaydi [8].

Yuqorida keltirilganidek kichik biznesning rivojlanishi bevosita moliyaviy mablag'larga bog'liq hisoblanadi. Ushbu subyektlarning faoliyati ko'lami tufayli moliyaviy resurslar cheklanganligi bilan bir qatorda, moliyaviy boshqaruv tizimi talab darajasida tashkil etilmagani, sodda qilib aytganda bu borada aniq bir strategik yondashuvini mavjud emasligi, ushbu subyektlar faoliyatida moliyaviy munosabatlarga alohida e'tibor qaratilishi kerakligini namoyon etadi. Fikrimizcha kichik biznes subyektlari faoliyatini barqarorligini ta'minlashda moliya tizimini ahamiyati yuqori bo'lib, soha rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi.

## METODOLOGIYA

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kichik biznes faoliyatiga kuchli ta'sir etuvchi omillardan biri, kapitaldir. Ya'ni, sohaning ishlab chiqarish omillari samaradorligini aniqlashda investitsiyalarga ham alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda, sarflangan omil sifatida investitsiyalar olinsa, natijaviy ko'rsatkich — sohada yaratgan mahsulot hajmi (yoki YAIM(YAHM)dagi soha ulushi) o'rganiladi.

Shuni alohida ta'kidlashimiz zarurki, Andijon viloyati kichik biznes subyektlari faoliyatiga kiritilgan investitsiyalarning realizatsiya darajasini tadqiq qilganimizda bir qator o'ziga xos xususiyatlarni aniqladik. Jumladan: kichik biznesga yo'naltirilgan investitsiyalarning to'liq realizatsiyasi viloyatda 1,5-2 yilgacha bo'lgan muddatlarni o'z ichiga olmoqda; aksariyat hollarda, «har bir oila tadbirkor» kabi dasturlar doirasida tashkil etilayotgan tadbirkorlik faoliyati uchun kiritilgan moliyaviy mablag'lar o'rtacha bir yilda realizatsiya bo'lmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olib, viloyatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kapital omilidan foydalanishni baholash bo'yicha o'rtacha arifmetik qiymatlar usullaridan foydalanib baholash usullarini takomillashtirdik.

Mazkur usullardan foydalanilganda ulushlardagi ko'rsatkichlar tadqiq qilinsa, nisbiy kapital qaytimi aniqlanadi. Bularni hisobga olib, sohaning kapital qaytimini ikki usulda amalga oshirishni taklif qilamiz. Birinchi usulda qiymatlardagi ko'rsatkichlar, ikkinchi usulda esa, foizlar hisobga olinadi. Modellarning ko'rinishi:

$$SKQ_t^i = \frac{SMH_t^i}{(SI_{t-1}^i + SI_t^i)/2} \quad (1)$$

yoki,

$$SNKQ_t^i = \frac{YIMU(YHMU)_t^i}{(SIU_{t-1}^i + SIU_t^i)/2} \quad (2)$$

Bunda:  $SKQ_t^i$  – i-sohada t-davrdagi kapital samaradorligi, so‘m;  
 $SI_t^i (SI_{t-1}^i)$  – i-sohaga t-davr (t-1-davr)da kiritilgan investitsiyalar hajmi, so‘m;  
 $SNKQ_t^i$  – i-sohada t-davrdagi nisbiy kapital samaradorligi;  
 $SIU_t^i (SIU_{t-1}^i)$  — t-davr (t-1-davr)da i-sohaning investitsiyalardagi ulushi, foiz.

Ishlab chiqilgan nisbiy kapital samaradorligini aniqlash usuli orqali kichik biznesdan tashqari, yirik biznesdagi, hududlardagi holatni ham aniqlashda foydalanish mumkin. Olingan natijalarga asoslanib, kichik va yirik biznesni hamda hududlardagi holatni bir-biri bilan solishtirma baholash imkoniyatiga erishiladi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida keltirilganidek, kichik biznes subyektlari barqarorligini ta’minlashda uning investitsion ta’minoti, sohaga yo‘naltirilgan kapital qo‘shilmalar muhim o‘rin tutadi. Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari faoliyatiga oid amalga oshirgan tadqiqotlarimizda ushbu subyektlar faoliyatida mablag‘lar yetishmasligi, ya’ni moliyaviy muammolar mavjudligi aniqlandi [10]. Moliyaviy barqarorlikni baholashda asosiy mezon sifatida investitsiyalarning kichik biznesga yo‘naltirilgan darajasini tadqiq etamiz.

#### 1-jadval

#### Andijon viloyati tuman va shaharlarida kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorlik darajasi <sup>1</sup>

№	Hududlar	2017-2020-yillar	2021-2024-yillar	Moliyaviy barqarorlik
1	<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	0,48	0,56	0,52
2	Andijon sh.	0,13	0,40	0,27
3	Xonobod sh.	0,27	0,57	0,42
4	Andijon t.	0,48	0,63	0,56
5	Asaka t.	0,06	0,04	0,05
6	Baliqchi t.	0,71	0,55	0,63
7	Bo‘ston (Bo‘z) t.	0,58	0,73	0,66
8	Buloqboshi t.	0,63	0,84	0,74
9	Jalaquduq t.	0,67	0,73	0,7
10	Izboskan t.	0,78	0,69	0,74
11	Ulug‘nor t.	0,45	0,23	0,34
12	Qo‘rg‘ontepa t.	1,00	1,02	1,01
13	Marhamat t.	0,58	0,74	0,66
14	Oltinko‘l t.	0,67	0,75	0,71
15	Paxtaobod t.	0,63	0,66	0,65
16	Xo‘jaobod t.	0,69	0,74	0,72
17	Shahrixon t.	0,83	0,77	0,8
18	Eng yuqori qiymat	1,00	1,02	1,01
19	Eng kichik qiymat	0,06	0,04	0,05
20	O‘rtacha qiymat	0,57	0,63	0,6

<sup>1</sup> Andijon viloyati Statistika Bosh boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlari o'rganilganda 2017-2020 yillarda Andijon viloyati bo'yicha kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligi darajasi 0,48 birlikga teng bo'lgan bo'lsa, 2021-2024 yillarda bu ko'rsatkich 0,56 birlikga teng bo'lgan bo'lib, avvalgi yillarga nisbatan 1,16 barobarga oshgan. 2017-2020 yillar davomida eng past moliyaviy barqarorlik darajasi Asaka tumaniga 0,06 teng bo'lgan bo'lsa, eng yuqori moliyaviy barqarorlik darajasi Qo'rg'ontepa tumaniga 1,00 teng bo'lgan. 2021-2024 yillarda esa bu ko'rsatkich mos holda Asaka tumani 0,04, Qo'rg'ontepa tumani 1,02 teng bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichlar umumlashtirilganda, eng yuqori qiymatlari Qo'rg'ontepa (1,01), Shahrixon (0,8), Buloqboshi (0,74), Bo'ston (0,66) tumanlariga to'g'ri kelgan. O'rtacha qiymatlardan (0,6) past ko'rsatkichlar Asaka (0,05), Ulug'nor (0,34), Andijon (0,56) tumanlariga hamda Andijon (0,27) va Xonobod (0,42) shaharlariga mos ekanligini tadqiqotlarimiz davomida aniqlandi (1-jadval).

Olib borilgan korrelyatsion-regression tahlillarimiz asosida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari iqtisodiy barqarorlikka kuchli bog'liqlikni aks ettirganligi aniqlandi. Shuningdek, mazkur ko'rsatkichlarga miqdor omillari, ya'ni ekstensiv manbalar kuchli ta'sir etmoqda. Bu esa, sohaning samaradorlik jihatlariga alohida e'tibor berishni, uning omil va manbalarini tadqiq etishni talab qiladi.

Investitsiyaga oid ko'rsatkichlarni umumlashtirib, tizimli baholashda manbalari alohida ahamiyatga ega. Mazkur ko'rsatkichlarning darajasiga qarab zamonaviy texnologiyalar holati baholanadi. Manbalar tarkibidagi xorijiy, ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ulushini yuqoriligi iqtisodiyotga zamonaviy texnologiyalarni kirib kelishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya manbalari ichida korxonalar o'z mablag'lari va aholi mablag'lari ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu manbalarning ulushi asosiy kapital hajmi o'sishini ta'minlaydi [9].

Investitsiyalarning yo'naltirilganlik darajasini keng va atroflicha tadqiq etish uchun kichik biznesning barqarorligini tahlil etamiz. Bunda, kapital omili ta'sirida iqtisodiyot rivojlanishini, uning barqarorligini alohida baholashimiz lozim. Buning uchun, investitsiya hajmini aholi jon boshiga to'g'ri kelgan qiymatiga asosan barqarorlikni aniqlaymiz. Iqtisodiy-matematik usullar asosida olingan natijalarga ko'ra viloyatdagi ko'rsatkich 2017 yildagi qiymatidan pasayib borib, 2024 yilda 0,25 birlikka teng bo'ldi. Tadqiqot davrida pasayish tendensiyalari Andijon va Xonobod shaharlarida, Andijon, Asaka, Bo'ston, Shahrixon tumanlarida yuz bergan. Qolgan hududlarda mazkur ko'rsatkichlar o'sish tendensiyalariga ega bo'ldi. Umumiy kapital barqarorligi koeffitsiyentining viloyat ko'rsatkichiga (0,36) nisbatan yuqori qiymatlari 4 ta hududda aniqlandi. Ular, Andijon (0,49), Xonobod (0,36) shaharlari, Asaka (0,39), Xo'jaobod (0,37). Shuningdek, o'rtacha ko'rsatkichga (0,27) nisbatan yuqori holat 7 ta hududda qayd etildi. Eng kichik birlik Shahrixon tumaniga (0,13) to'g'ri kelgan (2-jadval).

Shu bilan birga kichik biznes subyektlari uchun ajratilgan kreditlar hajmi bilan kichik biznesning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib, kichik biznes sohasiga qanchalik ko'p miqdorda kreditlar

ajratilsa, ushbu kreditlar nafaqat Andijon viloyati iqtisodiyoti, balki mamlakat iqtisodiyotida xam o‘z samarasini berib, YAIM ham oshib borilishiga zamin yaratadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, kreditlarning hajmi umumiy holda tahlil etilmoqda. Tuman va shaharlarning ko‘lami, aholi soni, iqtisodiy salohiyati bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Hatto, kichik biznes subyektlariga oid ko‘rsatkichlarda ham farq mavjud. Shu bois, kichik biznesga yo‘naltirilgan kreditlar hajmini tumanlar kesimida solishtirma baholaymiz. Ushbu usulni amalga oshirishda ko‘rsatkichlar darajasini bir xil holatga keltirib olishimiz zarur.

## 2-jadval

### Andijon viloyati tuman va shaharlarining kapital bo‘yicha umumiy barqarorlik darajasi<sup>1\*</sup>

№	Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	Umumiy kapital barqarorligi
1	<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	0,42	0,31	0,44	0,35	0,47	0,37	0,29	0,25	0,36
2	Andijon sh.	0,66	0,65	0,77	0,25	0,39	0,28	0,71	0,2	0,49
3	Xonobod sh.	0,4	0,53	0,38	0,49	0,26	0,24	0,33	0,21	0,36
4	Andijon t.	0,21	0,24	0,4	0,32	0,2	0,16	0,17	0,15	0,23
5	Asaka t.	0,44	0,37	0,52	0,69	0,6	0,14	0,11	0,17	0,39
6	Baliqchi t.	0,23	0,1	0,17	0,17	0,23	0,04	0,12	0,23	0,17
7	Bo‘ston (Bo‘z) t.	0,3	0,27	0,25	0,26	0,31	0,2	0,31	0,17	0,27
8	Buloqboshi t.	0,27	0,14	0,35	0,39	0,3	0,28	0,1	0,47	0,28
9	Jalaquduq t.	0,19	0,12	0,25	0,31	0,55	0,28	0,11	0,29	0,26
10	Izboskan t.	0,14	0,15	0,26	0,16	0,28	0,2	0,19	0,34	0,21
11	Ulug‘nor t.	0,19	0,15	0,24	0,25	0,12	0,05	0,18	0,4	0,2
12	Qo‘rg‘ontepa t.	0,19	0,13	0,23	0,2	0,17	0,17	0,31	0,61	0,25
13	Marhamat t.	0,06	0,11	0,28	0,23	0,2	0,13	0,18	0,11	0,16
14	Oltinko‘l t.	0,27	0,27	0,44	0,09	0,48	0,52	0,29	0,43	0,34
15	Paxtaobod t.	0,21	0,08	0,19	0,34	0,33	0,2	0,17	0,23	0,22
16	Xo‘jaobod t.	0,26	0,28	0,48	0,3	0,39	0,43	0,47	0,44	0,37
17	Shahrixon t.	0,18	0,05	0,07	0,13	0,22	0,14	0,06	0,09	0,13
18	Eng yuqori qiymat	0,66	0,65	0,77	0,69	0,6	0,52	0,71	0,61	0,64
19	Eng kichik qiymat	0,06	0,05	0,07	0,09	0,12	0,04	0,06	0,09	0,08
20	O‘rtacha qiymat	0,26	0,23	0,34	0,29	0,32	0,22	0,24	0,29	0,27

Kichik biznesga yo‘naltirilgan kreditlar hajmini solishtirma og‘irlik darajasini me‘yorlashtirishda ikki usuldan foydalanamiz. Birinchi usulda, kredit hajmini kichik biznes subyektiga nisbatini olsak, ikkinchi usulda kredit hajmini aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan hajmini baholaymiz.

Kichik biznes subyektlariga kiritilgan kreditlarning barqarorlik darajasini aholi jon boshiga nisbati asosidagi koeffitsiyentlari o‘rganilganda yuqori ko‘rsatkichlar Andijon shahriga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, 0,98 birlikni hosil qilgan. Bu esa Andijon shahrida faoliyat yurituvchi kichik biznes subyektlari faoliyatlariga kiritilgan kreditlar

<sup>1</sup> Hisob-kitoblar muallif tomonidan ishlab chiqilgan modellar asosida amalga oshirilgan.

hajmining yuqoriligini namoyon etadi. Shu bilan birga viloyat ko'rsatkichidan yuqori ko'rsatkichlar Xo'jaobod (0,46), Qo'rg'ontepa (0,28) tumanlari va Xonobod (0,29) shahri kabi hududlarda kuzatilgan. Kichik ko'rsatkichlar esa Buloqboshi (0,02), Izboskan (0,04), Andijon (0,05), Jalaquduq (0,05), Oltinko'l (0,07), Marhamat (0,10), Paxtaobod (0,10), Ulug'nor (0,10) va Baliqchi (0,13), Shahrixon (0,17) va boshqa tumanlar ulushiga to'g'ri kelgan (3-jadval).

### 3-jadval

#### Andijon viloyati tuman va shaharlarida kichik biznes subyektlariga kiritilgan kreditlarning barqarorlik darajasi (aholi jon boshiga nisbati asosida baholangan)<sup>1</sup>

№	Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	Umumiy kapital barqarorligi
1	<b>Viloyat bo'yicha:</b>	0,23	0,28	0,26	0,28	0,25	0,23	0,27	0,28	0,26
2	Andijon sh.	1	0,82	1	0,98	1	1	1	1	0,98
3	Xonobod sh.	0,19	0,11	0,24	0,43	0,39	0,28	0,35	0,36	0,29
4	Andijon t.	0,01	0,1	0,08	0,05	0,02	0,03	0,08	0,06	0,05
5	Asaka t.	0,18	0,1	0,15	0,41	0,27	0,2	0,29	0,26	0,23
6	Baliqchi t.	0,12	0,08	0,12	0,21	0,15	0,12	0,16	0,17	0,14
7	Bo'ston (Bo'z) t.	0,11	0,87	0,19	0,1	0,12	0,11	0,14	0,15	0,22
8	Buloqboshi t.	0,01	0,01	0,01	0,06	0,01	0,01	0,02	0,04	0,02
9	Jalaquduq t.	0,06	0,06	0,05	0,09	0,04	0,04	0,03	0,04	0,05
10	Izboskan t.	0,03	0,01	0,02	0,07	0,05	0,04	0,06	0,06	0,04
11	Ulug'nor t.	0,06	0,23	0,11	0,09	0,07	0,07	0,09	0,1	0,1
12	Qo'rg'ontepa t.	0,18	0,63	0,21	0,25	0,26	0,21	0,25	0,24	0,28
13	Marhamat t.	0,07	0,17	0,15	0,13	0,06	0,06	0,1	0,08	0,1
14	Oltinko'l t.	0,03	0,16	0,13	0,1	0,01	0,03	0,08	0,07	0,07
15	Paxtaobod t.	0,1	0,05	0,13	0,15	0,09	0,08	0,11	0,12	0,1
16	Xo'jaobod t.	0,24	0,75	0,92	0,96	0,22	0,16	0,21	0,23	0,46
17	Shahrixon t.	0,15	0,2	0,08	0,2	0,18	0,18	0,17	0,19	0,17
18	Eng yuqori qiymat	1	0,87	1	0,98	1	1	1	1	0,98
19	Eng kichik qiymat	0,01	0,01	0,01	0,05	0,01	0,01	0,02	0,04	0,02
20	O'rtacha qiymat	0,16	0,27	0,23	0,26	0,19	0,17	0,2	0,2	0,21

Shunday bo'lsada, ushbu ko'rsatkichlar birinchi navbatda tijorat banklarining mavjudligi bilan bog'liq holatni ifoda etmoqda. Ya'ni, miqdoriy ko'rsatkichlar ta'sirini ifodalovchi natijaviy holat aniqlandi. Bu esa, kreditlar hajmi va darajasining kichik biznesga ta'sirini yetarlicha ifodalamaydi. Ya'ni, ushbu holat birinchi navbatda kreditlar bo'yicha umumiy zichlikni aks ettiradi. Chunki, banklar tomonidan yo'naltirilgan kreditlarning sohaga ta'sirini chuqurroq baholash zarur. Shu bois, kichik biznesning kredit ta'minoti bo'yicha barqarorligini mavjud subyektlar soniga nisbatini tadqiq qilishimiz lozim.

Viloyat shahar va tumanlarida kichik biznes subyektlari soni asosidagi barqarorlikning kredit ta'minoti hisoblanganda Xo'jaobod (0,79) va Qo'rg'ontepa (0,56) tumanlarida yuqori ko'rsatkichlar, Oltinko'l (0,08), Andijon (0,08) tumanlarida eng kam miqdorlar aniqlandi (4-jadval).

<sup>1</sup> Andijon viloyati Statistika Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

**4-jadval**

**Andijon viloyati tuman va shaharlarida kichik biznes subyektlariga kiritilgan kreditlarning barqarorlik darajasi  
(kichik biznes subyektlariga nisbati asosida baholangan)**

№	Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	Umumiy kapital barqarorligi
1	<b>Viloyat bo'yicha:</b>	0,57	0,22	0,24	0,31	0,56	0,41	0,55	0,59	0,43
2	Andijon sh.	0,87	0,2	0,37	0,42	0,31	0,34	0,85	0,63	0,49
3	Xonobod sh.	0,53	0,05	0,14	0,21	0,24	0,19	0,94	0,51	0,35
4	Andijon t.	0,05	0,1	0,06	0,04	0,09	0,12	0,13	0,08	0,08
5	Asaka t.	0,54	0,1	0,16	0,18	0,8	0,22	0,6	0,32	0,36
6	Baliqchi t.	0,37	0,1	0,18	0,12	0,17	0,3	0,31	0,34	0,23
7	Bo'ston (Bo'z) t.	0,26	0,81	0,15	0,27	0,29	0,21	0,27	0,25	0,31
8	Buloqboshi t.	0,26	0,08	0,01	0,03	0,07	0,04	0,37	0,33	0,15
9	Jalaquduq t.	0,42	0,13	0,09	0,07	0,34	0,23	0,3	0,29	0,23
10	Izboskan t.	0,32	0,05	0,02	0,1	0,18	0,18	0,35	0,32	0,19
11	Ulug'nor t.	0,17	0,21	0,1	0,11	0,17	0,14	0,15	0,11	0,14
12	Qo'rg'ontepa t.	0,66	0,75	0,3	0,29	0,51	0,53	0,67	0,77	0,56
13	Marhamat t.	0,29	0,17	0,16	0,12	0,19	0,22	0,2	0,2	0,19
14	Oltinko'l t.	0,04	0,14	0,13	0,2	0,08	0,01	0,02	0,04	0,08
15	Paxtaobod t.	0,81	0,16	0,26	0,23	0,34	0,41	0,55	0,58	0,41
16	Xo'jaobod t.	0,71	0,71	1	0,82	0,88	1	0,53	0,71	0,79
17	Shahrixon t.	0,6	0,27	0,1	0,33	0,63	0,67	0,59	0,65	0,48
18	Eng yuqori qiymat	0,87	0,81	1	0,82	0,88	1	0,94	0,77	0,88
19	Eng kichik qiymat	0,04	0,05	0,01	0,03	0,07	0,01	0,02	0,04	0,03
20	O'rtacha qiymat	0,44	0,25	0,2	0,22	0,33	0,3	0,43	0,38	0,32

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida amalga oshirilgan moliyaviy barqarorlik darajasini baholash asosida olingan oraliq xulosalar va natijalarga tayanib takliflar ishlab chiqamiz. Bunda yuqori ta'minlanganlik tijorat banklari soni bilan to'g'ri bog'liqlikni ifodalamoqda. Bu esa, soha ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun miqdoriy ko'rsatkichlarga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda.

Demak, infratuzilma obyektlari soni va xizmat turlarini kengaytirish lozim. Shuningdek, institutsional o'zgarishlarni, jumladan, kreditlarning uzoq muddatli tartibini joriy qilishga qaratilgan soliq va boshqa imtiyozlarni kiritish lozim. Shu bilan birga, kichik biznesning moliyaviy barqarorligi bo'yicha ham alohida hisobot yuritib, ularning eksport salohiyati va bandlikdagi ulushi asosida imtiyozlar joriy etish zarur. Bu tadbirlar natijasida sohaning foydasi ortib, investitsion jozibadorligi yaxshilanadi, natijada yo'naltirilgan kapital hajmi va sifati ortadi.

Amalga oshirgan tahlillarga tayangan holda, kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi bilan kichik biznesning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligi korellatsion tahlil asosida tahlil qilindi. Unga asoslanib kichik biznes sohasiga qanchalik ko'p miqdorda kreditlar ajratilsa, ushbu kreditlar mamlakat iqtisodiyotida o'z samarasini berishini, ya'ni YAIM ham shu tariqa oshib borilishiga zamin yaratishini aytish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

12. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabr kungi PF-158-son Farmoni.

13. .А. Сафина, М.М. Гайфуллина “Оценка устойчивого развития малых нефтяных компаний” // Электронный научный журнал «Нефтегазовое дело». 2015. №1.

14. Л.М. Шахшаева. “Перспективы устойчивого стратегического развития малого предпринимательства в Республике Дагестан” // Теория и практика общественного развития. 2014, № 16.

15. А.Н. Добронравов. “Эффективность финансирования малых предприятий и организаций в России”: диссертация кандидата экономических наук : 08.00.10. — Москва, 2003. — 214 б.

16. Sh.O. Olimjonova. “Investisiya mahsulotlarini joriy etish kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni investisiyalash omili sifatida” // Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansy. 2017, №8. 13-19 b.

17. N.I. Sultonova. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni mikromoliyalashtirish: nazariya va amaliyot” // Xalqaro moliya va hisob ilmiy-elektron jurnali. 2019, №3.

18. M. Eshov “O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi: omillar, natijalar, istiqbollar”. Monografiya – Toshkent, “Ma’naviyat”-2017y, 25-b.

19. Sh.K. Mamadaliyev. “Tijorat banklari tomonidan kichik biznesni moliyalashtirishning yangi shakllarini qo‘llash”. // Molodoy uchenyy. — 2020 g. № 21 (311). S. 794-797. — [URL:https://moluch.ru/archive/311/70649/](https://moluch.ru/archive/311/70649/)

20. М.Э. Жураханов. “Анализ эффективности деятельности субъектов малого бизнеса в Андижанской области”. «Collquium-journal» #31 (154) 10.11.2022. ISSN 2520-6990.

21. M.E.Jurahonov. “Analysis of the impact of investment on the sustainable development of small business entities” Mashinasozlik ilmiy-texnik jurnal. 2022 yil №4 250-257 bet.

22. Andijon viloyati statistika boshqarmasi statistik ma’lumotlari.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhah:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, noyabr, 11-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610  
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**